

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
SENTYABR / 9-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASOSIY VOSITALARNING DASTLABKI QIYMATINI SHAKLLANTIRISHNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDAGI METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	9
Nematova Dilnoza Azamatovna	
TIJORAT BANKLARIDA MIJOZGA YO'NALTIRILGAN BIZNES-JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING HOZIRGI HOLATI.....	15
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	23
Нигматова Сугдиена Жалолиддин кизи	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING MEKANIZMLARIDAN FOYDALANISH.....	29
Bazarova Mamlakat Supiyevna	
XORIJIY ILMIY STAJIROVKALARNI TASHKIL ETISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISHNING TIZIMLI TAHLILI VA KONSEPTUAL MODEL.....	33
Tojiyev S.A., Mashg'ulotov J.A., Usmonov U.M.	
HUDUDLAR IQTISODIYOTIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI BARTARAF ETISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	44
Toshov Mirzabek Hakimovich	
O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH	50
O'rinova Umida Qodirjonovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA ULTRABINAFSHA C NURLANISH TEXNOLOGİYALARINING QO'LLANILISHI: ZAMONAVIY HOLATI, SAMARADORLIGI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	54
Ibroximov Sanjarbek, Nematov Nurillo, Xakimov Dilmurod	
TEKNOGEN CHIQINDILAR ASOSIDA MNA-1 VA MNA-2 FAOL KIMYOVIY QO'SHIMCHALARINI SINTEZ QILISH VA SEMENT XAMIRINING REOLOGIK KO'RSATKICHLARINI BOSHQARISH.....	64
Muhamedov Nodir Abdug'aniyevich	
IKKI TOMONLAMA TA'MINLANADIGAN ASINXRON GENERATOR ASOSIDAGI SHAMOL ENERGETIKA TIZIMINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA VEKTORLI BOSHQARISHNI TADQIQ ETISH.....	69
To'ychiyev Furqat, Rashidov Nuralibek, Abduxalilov Abdumannop	
СЕЙСМОСТОЙКОСТЬ МАЛОЭТАЖНОГО ЗДАНИЯ С ПУЛТРУЗИОННЫМ СТЕКЛОПЛАСТИКОВЫМ КАРКАСОМ И ДЕФОРМАЦИОННО-РАЗВЯЗНЫМИ 3D-ПЕЧАТНЫМИ СТЕНАМИ.....	80
Акбаров Дильшод, Акрамов Хуснитдин	
LEGIRLANGAN SILIKAT SHISHADA ZEEBEK EFFEKTIGA MNO_2 TA'SIRI	90
Soliyev Muxammadyor, Tursunova Rushana	
TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI PROGNOZLASH.....	99
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	107
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
UNIVERSITET INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISH EKOTIZIMI SIFATIDA: DUNYO VA O'ZBEKISTONDA TA'LIM SIYOSATINING EVOLYUTSIYASI	114
Sabirov Alisher, Oqmullayev Ravshanjon	
PUTUR YETKAZMASDAN TEKSHIRISH LABORATORIYALARINI AKKREDITATSIYALASHDA STANDARTLASHTIRISH TALABLARINING AHAMIYATI.....	122
Axmedov G'ayratjon Maxmudjonovich	



QURILISH SANOATI KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI	129
G'iyosov Ilxom Karimovich	
KORXONALARDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH: G'OYALARNI TIJORIYLASHTIRISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI	137
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
DAVLAT BUDJETI BARQARORLIGI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR KLASSIFIKATSIYASI	142
Gadoyeva Nilufar Erkinovna	
KORXONALARDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA INNOVATION MARKETING TEKNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	148
Ikramova Nasiba Axmadovna	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING MAMLUKAT IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIRI.....	153
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	




TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING MAMLAKAT IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIRI

Mizamova Umida Jamoliddin qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Makroiqtisodiy siyosat va prognozlashtirish kafedrası tayanch doktoranti

E-mail: mizamovaumida807@gmail.com



Annotatsiya. Mazkur maqolada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'siri nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotga kapital, zamonaviy texnologiyalar, innovatsiyalar va ilg'or boshqaruv tajribasini olib kirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shu bilan bir qatorda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining yalpi ichki mahsulot, ishlab chiqarish samaradorligi, bandlik va eksport salohiyatiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Maqolada xorijiy investitsiyalarni samarali jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini shakllantirish, investorlar huquqlarini himoya qilish, infratuzilmani rivojlantirish hamda investitsiya siyosatini takomillashtirishning ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiy o'sishini rag'batlantiruvchi muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiyalar, kapital, yalpi ichki mahsulot, bandlik, eksport, innovatsiya, investitsiya siyosati, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy o'sish, investitsion muhit, milliy iqtisodiyot, kapital oqimi, innovatsiyalar.

Аннотация. В данной статье с теоретической и практической точек зрения анализируется влияние прямых иностранных инвестиций на экономический рост страны. Освещается значение иностранных инвестиций в привлечении в экономику капитала, современных технологий, инноваций и передового управленческого опыта. Наряду с этим рассматривается влияние объема прямых иностранных инвестиций на валовой внутренний продукт, эффективность производства, занятость и экспортный потенциал. В статье обосновывается значение формирования благоприятного инвестиционного климата, защиты прав инвесторов, развития инфраструктуры и совершенствования инвестиционной политики для эффективного привлечения иностранных инвестиций. Результаты исследования показывают, что прямые иностранные инвестиции являются одним из важных факторов, стимулирующих экономический рост страны.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, капитал, валовой внутренний продукт, занятость, экспорт, инновации, инвестиционная политика, прямые иностранные инвестиции, экономический рост, инвестиционный климат, национальная экономика, приток капитала, инновации.

Abstract. This article analyzes the impact of foreign direct investment on a country's economic growth from both theoretical and practical perspectives. It highlights the importance of foreign investment in bringing capital, modern technologies, innovations, and advanced management practices into the economy. In addition, the impact of the volume of foreign direct investment on gross domestic product, production efficiency, employment, and export potential is examined. The article substantiates the importance of creating a favorable investment climate, protecting investors' rights, developing infrastructure, and improving investment policy to attract foreign investment effectively. The research findings indicate that foreign direct investment is one of the key factors stimulating a country's economic growth.

Keywords: foreign investment, capital, gross domestic product, employment, exports, innovation, investment policy, foreign direct investment, economic growth, investment climate, national economy, capital inflows, innovations.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida globallashuv va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining jadallashuvi natijasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biriga aylanib bormoqda. Xorijiy investitsiyalar nafaqat mamlakat iqtisodiyotiga qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etadi, balki zamonaviy texnologiyalar, innovatsiyalar, ilg'or boshqaruv tajribasi va yangi ishlab chiqarish usullarining kirib kelishiga ham xizmat qiladi. Shu sababli rivojlanayotgan mamlakatlar uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakat iqtisodiy o'sishining barqarorligini ta'minlashda investitsiya muhitining qulayligi alohida ahamiyat kasb etadi. Siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlik, qonunchilikning shaffofligi, investorlar huquqlarining

kafolatlanishi, infratuzilmaning rivojlanganligi hamda soliq va bojxona tizimining samaradorligi xorijiy investorlarning mamlakatga bo'lgan qiziqishini belgilovchi asosiy omillar majmuasiga kiradi. Shu nuqtayi nazardan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini oshirish bilan bir qatorda, ularning iqtisodiyotning real sektoriga samarali yo'naltirilishini ta'minlash ham muhimdir.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy kapital oqimini ko'paytirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, investitsiya faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash, investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash hamda hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda.

Mazkur yo'nalishdagi muhim huquqiy asoslardan biri O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni bo'lib, unda investitsiya faoliyatining asosiy prinsiplari, investorlarning huquqlari va majburiyatlari hamda investitsiyalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning huquqiy mexanizmlari belgilangan. Ushbu qonunchilik bazasi mamlakatda investitsiya faoliyatini rivojlantirish va xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlarni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Investitsiya siyosatini takomillashtirish bo'yicha belgilangan vazifalar 2026-yilda ham izchil davom ettirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Farmonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hajmining yillik o'rtacha 5–7 foizga o'sishini ta'minlash, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda umumiy qiymati 150 milliard AQSH dollari bo'lgan 400 dan ziyod strategik texnologik va infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini amalga oshirish maqsadlari belgilangan.

Mazkur vazifalar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganishning dolzarbligini yanada oshiradi. Shu bilan birga, xorijiy kapitalning mahalliy korxonalar bilan kooperatsiyasi natijasida bilim va texnologiyalarning iqtisodiyot bo'ylab tarqalishi mamlakatda mehnat unumdorligi hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Investitsiya siyosatining samaradorligini oshirishda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonlarining shaffofligi va raqobat muhitini ta'minlash ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, 2026-yil 3-fevraldagi Vazirlar Mahkamasining 44-son qarori asosida yirik investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish jarayonlarida korrupsiyaga qarshi hamda raqobatni ta'minlovchi standartlarni joriy etishga qaratilgan mexanizmlar ishlab chiqilgan. Bu esa investitsiya loyihalarining samaradorligi va investorlar uchun biznes muhitining ishonchligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR SHARHI

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'siri iqtisodiyot fanida uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinayotgan muhim yo'nalishlardan biridir.

Xorijiy investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan dastlabki nazariy yondashuvlarda xorijiy kapital mamlakatda kapital yetishmovchiligini qoplash va ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish vositasi sifatida qaralgan. Keyingi tadqiqotlarda esa xorijiy investitsiyalarning afzalligi faqat moliyaviy resurslar bilan cheklanmasligi, balki yangi texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va xalqaro bozorlar bilan aloqalarni olib kirishi alohida ta'kidlangan.

D. de Mello tomonidan 1999-yilda amalga oshirilgan empirik tadqiqotda 16 ta OECD mamlakati va 17 ta rivojlanayotgan mamlakat ma'lumotlari asosida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ishlab chiqarish hajmi va iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mamlakatga xos xususiyatlar hisobga olinganda, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarish o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Rivojlangan mamlakatlarda ushbu ta'sir asosan mehnat va ishlab chiqarish unumdorligining oshishi orqali, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa kapital jamg'arilishi orqali namoyon bo'lishi qayd etilgan.

Shu bilan birga, barcha tadqiqotlarda xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri bir xil darajada ijobiy ekanligi tasdiqlanmagan. Jumladan, Carkovic va Levine tomonidan 1960–1995-yillarni qamrab olgan 72 ta mamlakat ma'lumotlari asosida olib borilgan tadqiqotda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik statistik jihatdan barqaror emasligi aniqlangan. Mazkur natija xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri mamlakatning rivojlanish darajasi, institutsional muhit va boshqa makroiqtisodiy shart-sharoitlarga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Blomström va Kokko tadqiqotlarida esa xorijiy investitsiyalarning mezbon mamlakat iqtisodiyotida texnologik va bilimga oid "spillover" — ya'ni bilvosita tarqalish samaralarini yuzaga keltirishi mumkinligi asoslab



berilgan. Bunda xorijiy kompaniyalarning mahalliy korxonalar bilan aloqalari, xodimlarning malaka oshirishi, texnologiyalarni o'zlashtirish va raqobatning kuchayishi muhim kanallar sifatida ko'rsatiladi. Biroq mazkur samaralarning yuzaga kelishi mamlakatdagi inson kapitali darajasi, mahalliy korxonalarning texnologiyalarni o'zlashtirish qobiliyati va raqobat muhitiga bog'liq.

OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar rivojlanish uchun muhim katalizator bo'lishi mumkinligi, biroq uning ijobiy natijalari avtomatik ravishda yuzaga kelmasligi ta'kidlangan. Xususan, investitsiyalardan yuqori samara olish uchun shaffof va qulay investitsiya siyosati, rivojlangan institutsional muhit, inson kapitali hamda tegishli infratuzilmaning mavjudligi muhim hisoblanadi.

Leshner va Miroudot tadqiqotlarida xorijiy investitsiyalarning texnologik va bilimga oid tarqalish samaralari tarmoqlar bo'yicha sezilarli darajada farq qilishi aniqlangan. Mualliflar ayrim xizmat ko'rsatish tarmoqlarida xorijiy investitsiyalarning unumdorlikni oshiruvchi ta'siri kuchliroq ekanligini ko'rsatgan. Shuningdek, savdo ochiqligi va xorijiy investitsiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim omil sifatida qayd etilgan.

2014-yilda e'lon qilingan xorijiy investitsiyalar va iqtisodiy o'sish bo'yicha adabiyotlar sharhida 1994–2012-yillar oralig'idagi ko'plab tadqiqotlar umumlantirilgan. Unda aksariyat empirik tadqiqotlarda FDI va iqtisodiy o'sish o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniqlangani, biroq ayrim tadqiqotlarda salbiy yoki statistik jihatdan ahamiyatsiz natijalar ham olingani ko'rsatilgan. Mualliflar ushbu farqlarni inson kapitalining yetarli darajasi, moliya bozorlarining rivojlanganligi, ichki va xorijiy investitsiyalarning o'zaro to'ldiruvchanligi hamda savdo rejimining ochiqligi kabi omillar bilan izohlaydi.

Zamonaviy tadqiqotlarda esa xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri yanada kengroq — mehnat unumdorligi, innovatsiyalar, raqamlashtirish, ko'nikmalarni rivojlantirish, yashil iqtisodiyot va kichik biznes bilan aloqalar nuqtayi nazaridan o'rganilmoqda. OECDning so'nggi yondashuvlariga ko'ra, xorijiy investitsiyalar mahalliy korxonalar bilan ta'minot zanjirlari, strategik hamkorlik, raqobat, taqlid va mehnat mobilligi orqali texnologiya hamda bilimlarning tarqalishiga yordam berishi mumkin. Shu bilan birga, bunday samaralar tegishli siyosiy va institutsional shart-sharoitlar mavjud bo'lgandagina yuqori darajada namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiy o'sishining muhim omillaridan biri bo'lishi mumkin. Biroq uning ta'sir darajasi barcha mamlakatlarda bir xil emas. Investitsiyalarning iqtisodiy samarasi mamlakatning inson kapitali, moliyaviy tizimi, institutsional sifati, savdo ochiqligi, texnologik salohiyati va mahalliy korxonalarning xorijiy kompaniyalar bilan aloqalariga bog'liq. Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sirini baholashda nafaqat investitsiya hajmi, balki uning ishlab chiqarish, bandlik, eksport va texnologik rivojlanishga ta'sirini kompleks ravishda o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'siri O'zbekiston misolida o'rganildi. Tadqiqotning asosiy maqsadidan kelib chiqib, xorijiy investitsiyalar hajmi va yalpi ichki mahsulot (YalM) o'sishi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi. Tadqiqotda asosan statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Statistik tahlil orqali to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining yillar davomida o'zgarishi o'rganildi. Qiyosiy tahlil yordamida investitsiyalar hajmi bilan mamlakatning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari taqqoslandi.


Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasining rasmiy statistik ma'lumotlari, investitsiya faoliyatiga oid hisobotlar, xalqaro tashkilotlarning statistik ma'lumotlari hamda investitsiya sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi.

Tahlil jarayonida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning YalM o'sishi, ishlab chiqarish, bandlik va eksportga ta'siriga e'tibor qaratildi. Olingan natijalar asosida xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiy o'sishidagi o'rni baholandi hamda mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Xorijiy kapitalning mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelishi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi korxonalarni tashkil etish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi. O'zbekiston misolida ham so'nggi yillarda xorijiy investitsiyalar oqimining ortishi iqtisodiy faollikning kuchayishi bilan birga kuzatilmoqda (1-rasm).

Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi



1-rasm¹. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar

So'nggi besh yil davomida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, 2025-yil yanvar–dekabr oylarida ushbu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan qariyb 1,8 barobarga oshdi.

So'nggi besh yil mobaynida o'sish sur'atlarini ko'radigan bo'lsak, ular o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lib, 2024-yilda eng yuqori o'sish sur'ati – 131,3 % kuzatilgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar–dekabr oylarida ushbu ko'rsatkich 110,5 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun 2025-yil yanvar–dekabr oylarida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 591,1 trln so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi va bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 10,5 %ga oshdi (1-jadval).

1-jadval.²

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

	Hajmi, mlrd so'm	o'sish sur'ati, %da	umumiy hajmga nisbatan, %	
			2024-y.	2025-y.
Jami	591 141,0	110,5	100,0	100,0
markazlashgan investitsiyalar:	62 618,6	113,6	10,3	10,6
respublika budjeti	28 002,0	105,8	4,9	4,7
tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari	2 109,5	68,0	0,6	0,4
shu jumladan, mln AQSH dollari	166,2	70,1	–	–
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	32 507,1	127,2	4,8	5,5
shu jumladan, mln AQSH dollari	2 577,7	135,3	–	–
markazlashmagan investitsiyalar:	528 522,4	110,2	89,7	89,4
korxona mablag'lari	90 311,1	100,8	16,7	15,3
aholi mablag'lari	37 472,2	106,2	6,4	6,3
Xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	389 589,6	113,2	64,6	65,9
shu jumladan, mln AQSH dollari	30 917,0	119,9	–	–
shundan:				
xorijiy investitsiyalar	281 128,8	146,9	36,0	47,5
shu jumladan, mln AQSH dollari	22 360,4	156,1	–	–
tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	11 149,5	104,6	2,0	1,9

1 Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

2 Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi



Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2025-yil yanvar–dekabr oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan hajm 62,6 trln so'mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 13,6 %ga oshdi. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi esa 10,6 %ga yetdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar natijasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlashda muhim omillardan biri ekanligi aniqlandi. 2020–2025-yillar davomida O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi investitsiya loyihalarining kengayishi bilan bir qatorda iqtisodiy faollik va yalpi ichki mahsulotning barqaror o'sishi kuzatildi. Ayniqsa, 2023–2025-yillarda xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining sezilarli oshgani mamlakatda investitsiya jarayonlari faollashganini ko'rsatadi.

Xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ish o'rinlarini ko'paytirish va eksport salohiyatini oshirish orqali namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar hajmining ortishi iqtisodiy o'sishning yagona omili bo'lmay, ichki investitsiyalar, iste'mol, eksport, xizmatlar sohasi va boshqa makroiqtisodiy omillar bilan birgalikda ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Shundan kelib chiqib, O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarning nafaqat miqdorini oshirish, balki ularning iqtisodiy samaradorligini ta'minlash muhim hisoblanadi. Xususan, yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan, eksportga yo'naltirilgan va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan loyihalarni ko'paytirish mamlakat iqtisodiy o'sishining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xorijiy kompaniyalarni mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan kooperatsiyaga jalb qilish orqali texnologiya, bilim va boshqaruv tajribasining mahalliy iqtisodiyotga kengroq tarqalishini ta'minlash lozim.

Investitsiyalarni faqat yirik shaharlarga emas, balki tabiiy resurslari, mehnat salohiyati va ishlab chiqarish imkoniyatlari yuqori bo'lgan hududlarga ham yo'naltirish zarur.

Xorijiy investorlar uchun qonunchilikning barqarorligi va shaffofligini ta'minlash, yuzaga keladigan nizolarni tezkor hal qilish mexanizmlarini takomillashtirish investitsiya oqimining barqarorligini oshiradi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy taklif va tavsiyalardan kelib chiqqan holda, ularni chuqur o'rganib, tahlil qilish va asoslab, amaliyotga tatbiq etish yaqin kelajakda o'z natijasini beradi. Shuningdek, mamlakatda qulay investitsiya muhitini yaratish orqali davlatning investitsiya jozibadorligini yanada oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" O'RQ-598-son Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-4664142?ONDATE=22.02.2024%2000>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-21-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>
3. De Mello L.R. Foreign Direct Investment-Led Growth: Evidence from Time Series and Panel Data // *Oxford Economic Papers*. – 1999. – Vol. 51, No. 1. – P. 133–151.
4. Blomström M., Kokko A. Multinational Corporations and Spillovers // *Journal of Economic Surveys*. – 1998. – Vol. 12, No. 3. – P. 247–277.
5. Carkovic M., Levine R. Does Foreign Direct Investment Accelerate Economic Growth? // *Does Foreign Direct Investment Promote Development?* – Washington, DC: Institute for International Economics, 2005. – P. 195–220.
6. Leshner M., Miroudot S. FDI Spillovers and Their Interrelationships with Trade // *OECD Trade Policy Working Papers*. – 2008. – No. 80. – Paris: OECD Publishing.
7. World Bank. *World Development Indicators. Foreign Direct Investment, Net Inflows (BoP, Current US\$)*. – Washington, DC: World Bank.
8. OECD. *Foreign Direct Investment for Development: Maximising Benefits, Minimising Costs*. – Paris: OECD Publishing, 2002.
9. OECD. *FDI Qualities and Impact*. – Paris: OECD.
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati bo'yicha statistik ma'lumotlar*. – Toshkent, 2020–2025.
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Investitsiyalar va qurilish statistikasi*. – Toshkent, 2020–2025.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100